

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI

DEFEKTOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika - psixologiya fakul'teti dekani
_____ prof.X.A.Meliyev
“___” _____ 2013 y.

**5141800 – Defektologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**“BOLALARDA UCHRAYDIGAN MIYA FALAJLANISHI VA ULAR
BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR TIZIMI”
MAVZUSIDA BAJARILGAN**

BITI RUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: Nurmatova Gulasal Saloxiddinovna
401 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: tib.f.n. dos T.Ikromov

Ishni himoyaga tavsiya etaman tib.f.n. dos T.Ikromov

(imzo)

BMI Defektologiya kafedrasi yig'ilishining qarori
bilan (Qaror №_ __.2013 y) himoyaga tavsiya
etilgan.

Kafedra mudiri: G`.Arifxodjaev

(imzo)

JIZZAX – 2013

M U N D A R I J A

KIRISH.....	2-5
I. BOB. Bosh miya falaji bor bolalarning jismoniy va psixologik xususiyatlari	
1.1. Imkoniyati cheklangan bolalar asab-ruhiy holatlarining o'ziga xosligi.....	6-8
1.2. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan korreksion ishlarni tashkil etish.....	9-14
II. BOB. Bolalar miya falajlanishida olib boriladigan korreksion ishlar.	
2.1. Bosh miya falaji bor bolalar bilan korreksion-logopedik ishda defektologlar va ota-onalar hamkorligi.....	15-18
2.2. Bosh miya falaji bor bolalarni hayotga moslashtirishda defektologlarning korreksion rivojlantiruvchi ishi.....	19-23
2.3. Bosh miya falaji bor bolalar harakatlarni rivojlantirish va me'yorlashtirishda jismoniy tarbiya ishlarining asosiy vazifasi....	24-28
2.4. Bolalar miya falajida olib boriladigan logopedik ishlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	29-41
XULOSA.....	42-45
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	46-47
ILOVA.....	48

KIRISH

Jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri buyuk Vatanimizning kelajagini yaratuvchi yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Bu ishni amalga oshirishda, ya'ni sog'lom avlodni shakillantirish ishlarida ta'lim-tarbiya asosiy o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining nogironlarga nisbatan olib boriladigan davlat siyosati "O'zbekiston Respublikasida nogironlarining ijtimoiy himoyalanihi to'g'risidagi"gi qonuni bilan belgilandi.

Bu qonun aholining mazkur guruhi boshqa fuqarolar bilan teng asosda to'laqonli hayot kechirish, jamiyat fuqorolik majburiyatlarini bajarishga yordam beradigan imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish maqsadida huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tadbirlar tizimini ko'zda tutadi. Bu qonun aholi sog'ligini himoya qilish, nogironlikning oldini olish va nogironlarning jamiyat hayotiga singib ketishi uchun shart-sharoitlar yaratishga safarbar qilingan ijtimoiy jamiatlar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yadigan dastlabki jiddiy huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Miya falaji bolalar bilan korreksion ish jarayonida ota-onalar va mutaxassis-defektolog hamkorligining mazmuni, usullari va vositalari hamda ularning samaradorligi har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya tizimi negizida muayyan maqsadlar yotadi.

Istiqlol vazifalari esa bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimi mazmunini yangilashni talab etadi. Bu esa ijtimoiy tarbiya bilan oilaviy tarbiyani mazmunan uzviy bog'lash zaruratini keltirib chiqaradi.

Maxsus korreksion pedagogika umumiy pedagogikaning tarkibiy qismi bo'lganligi uchun, bu vazifalar ushbu sohaning ham ustuvor vazifalariga aylandiki, ularning amalga oshirilishi maxsus pedagogikani oilaviy tarbiya va ijtimoiy tarbiya bilan uzviy bog'lashning yangi usul va yo'llarini izlab topish, bu yo'lda ilmiy-

amaliy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Davlat va jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli shu davlat, shu mamlakatda yashovchi fuqarolarning jismonan baquvvat va sog'lom bo'lishi bilan belgilanadi.

Yaxshi orzu-umidlar bilan kutilayotgan farzandning nosog'lom, nogiron tug'ilishi esa har qanday oila uchun fojeadir.

Korreksiya pedagogikasining muhim omili bu bolaning saqlanib qolgan asab-ruhiy funktsiyalariga tayangan holda individual yondoshishdir.

Korreksion pedagogikaning muhim omillaridan yana biri bu "talabga javob berish" printsipidir. Bu bemor bolaga qo'yilayotgan talablar uning sog'ligiga, jismoniy va ruhiy holatiga qarab belgilanadi. Faqat shunday sharoitdagina bolada o'zining kuchiga ishonch hosil bo'ladi va bola mashg'ulotlariga nisbatan yaxshi munosabatda bo'ladi.

Davolashning boshlang'ich bosqichlarida pedagogik talablar bolaning psixofizik sharoitidan ancha orqada bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda shu narsa aniqlandiki, erta boshlangan davolash tarbiyalari natijasida bolaning yaxshi rivojlanishi, sharoitga ko'nikishi ancha oson kechadi.

Bolaning erta yoshidagi davolash va korrektsiyalash muolajalari xoh oilasida bo'lsin, xoh pedagog mashg'ulotlarida bo'lsin hozircha kam ishlab chiqilgan. Ayniqsa, surunkali somatik kasalliklar, asab-ruhiy buzilish kasalliklari, hamda muloqot buzilishlari ustida hali ko'p ishlash kerak.

Tadqiqotning dolzarbligi

Tayanch harakat a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar xozirgi kunda asosan uy sharoitida tarbiyalanib kelinmoqda. Shuning uchun bunday bolalarning aksariyati hali defektologik tashxis qilinmagan.

Ularning ota-onalari kimlarga, qaysi mutaxassisga murojaat etish kerakligini ham bilishmaydi. Shu boisdan tserebrat falaj bolalar uyda e'tiborsiz kolib ketmokda. Tumanlarda va qishloqlarda defektolog-mutaxassislar etishmasligi ham muammoning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Ota-onalar serebral falaj bolani tarbiyalashga oid pedagogik va metodik bilimlarga nihoyatda muhtoj.

Ular serebral falaj farzandlari bo'lgani bois tushkunlikka tushgan, qalbi

ezilgan bo'lishi barobarida, nogiron farzandlarini qanday o'stirish, tarbiyalash, maktabga tayyorlashga oid ma'lumotlarga ham ega emaslar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz “Bolalarda uchraydigan miya falajlanishi va ular bilan olib boriladigan korreksion ishlar tizimi” mavzusini dolzarb deb topdik.

Tadqiqotning maqsadi

Tadqiqotimiz metodikasining asosiy maqsadi ham serebral falaj bolalarni o'rganish, korrektsiyalash hamda ota-onalarni nogiron bola tarbiyasiga tayyorlashda ularning defektolog bilan hamkorligini ilmiy-metodik jihatdan rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotda serebral falaj bolalardagi nogironlik sabablari, nutq nuqsonlari va tayanch - harakat apparatining holatlari aniqlandi va o'rganildi. Ota-onalarning o'z bolalarini tarbiyalash borasidagi muammolari, oilalarning ijtimoiy holati, olingan natijalar korreksion-pedagogik yordamni tashkil etish yo'llari va korreksion-reabilitatsiya masalalarini ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Tadqiqot vazifalari

-Pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarda serebral falajni kelib chiqish va korreksion ish olibborishni o'rganish, taxlil etish:

-Mahsus muasasalarida o'qituvchi-tarbiyachilarni ish tajribalarni o'rganish, serebral falaj bolalarning o'zlashtirishi qay holatda ekanligini aniqlash, bu boradagi o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish.

Tadqiqot metodlari:

Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, bakalavr darajasini olish uchun bajarilgan malakaviy bitiruv ishini yozish mobaynida

- maxsus pedagogikaga oid ilmiy, metodik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish;
- kuzatish, anketa-so'rovnomalar tarqatish;
- eksperiment (kuzatuv, ta'limiy);

- psixologik-pedagogik, tibbiy hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish;

Tadqiqotning ob'ekti

Miya falaji bo'lgab bolalarga ta'lim-tarbiya berish, nutqidagi va tayanch-harakatidagi kamchiliklarni bartaraf etish, ularni ijtimoiy hayotga faol shaxs sifatida tayyorlash yo'lida korreksion ishlarni amalga oshirishda ota-onalar hamkorligiga erishish hamda bu hamkorlikning maqbul metod va usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning predmeti

Mahsus muasasalaridagi serebral falaj bolalardagi nogironlik sabablari, nutq nuqsonlari va tayanch-harakat apparatining holatlari so'z boyligini o'rganish jarayoni.

Tadqiqot ishlarimizda quyidagi metodlardan foydalandik: umumiy va maxsus adabiyotlar tahlili, tibbiy – pedagogik xujjatlarni o'rganish, tajribani o'rganish, eksperiment o'tkazish.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asosi.

Tadqiqotimizning nazariy va metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy kengash, Oliy Majlis qonunlari, xususan, "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Ta'lim va tarbiyaga oid Prezidentni farmonlari, Vazirlar maxkamasining qarorlari, Prezidentimiz Islom Karimov asarlari, ma'ruza va nutqlari, pedagog va defektologlarning ilmiy va nazariy ishlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

Bolalarda uchraydigan miya falajlanishi va ular bilan olib boriladigan korreksion ishlar tizimi mavzusidagi bakalavr darajasini olish uchun bajarilgan malakaviy bitiruv ishimiz kirish qismi, ikki bob, xulosa, adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I. BOB. BOSH MIYA FALAJI BOR BOLALARNING JISMONIY VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

1.1. Imkoniyati cheklangan bolalar asab - ruhiy holatlarining o'ziga xosligi

Bolalarning rivojlanishidagi va o'qishidagi o'ziga xos qiyinchiliklaridan tashqari bu guruhdagi har bir bolada ruhiy asab rivojida umumiy qiyinchiliklar bor. Bu birinchi navbatda aqliy mehnatning, xotiraning pastligi, irodaning etishasligi, nutq sustligi, bilim zahirasi chegaralanganligi va boshqalardir.

Bolalarning ba'zilar hayajoni kuchli va harakatlari tez bo'lsa ba'zilar buning teskarisi passiv harakat va ruhiy jihatdan atrofodagi holatlarga e'tiborsiz bo'lishadi. Bolalarning kasali markaziy asab sistemasining buzilishi qachon sodir bo'lganligiga qarab ham bir-biridan farqlanadi. Bolaning rivojlanishini davom ettirishda faqat rivojlanishning xarakteri yoki variantigina katta ahamiyatga ega bo'libgina qolmay balki davolash- korrektsiya qilish muolajalari boshlanish vaqti ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda shu aniqlanganki, erta va doimiy sistemaga qo'yilgan davolash pedagogik va korrektsion tadbirlar bolaning o'qishi va rivojlanishi ancha yuqori darajada bo'lishini ta'minlashi mumkin. Bu bola hayotining birinchi yillarida miya faoliyati faol rivojlanishi bilan bog'liq.

Bundan tashqari bu vaqtda bola harakatni, nutq va hulqni engilroq o'zlashtiradi. Agarda davolash pedagogikasi va korrektsiyalash ishlari olib borilmagan bo'lsa bolaning noto'g'ri rivojlanishini to'g'rilash juda murakkab. Davolash pedagogikasining ta'siri ostida faqatgina rivojlanishdagi kamchiliklar engilibgina qolmay, bunda asab sistemasi buzilishining oldini olish mumkin, bunga yana ruhiy jarohatlar ta'sirida kelib chiqadigan nevrozlar kiradi.

Bola qancha yosh bo'lsa, shunchalik arziyas qo'zg'atuvchi holatlar ruhiy jarohatga olib kelishi mumkin. Bu hodisalar sodir bo'lmasligi uchun ota-onalar va pedagoglar yosh bola bilan to'g'ri munosabat o'rnatishni o'rganishlari lozim.

Buning uchun korrektsion pedagogikasining maxsus ona va bola, pedagog-korrektor va bola uchun dasturlar tuzilishi mumkin.

Hozirgi kungacha og'ir kamchiligi bor bolalar o'qitib bo'lmaydigan nogironlar deb qaralar edi va ota-onasiga bolani davlat tasarrufidagi tashkilotlarga joylashtirish tavsiya etilar edi. Hozirgi vaqtda vaziyat o'zgardi.

Davolashni erta boshlash, ayniqsa davolash-pedagogikasining faol ishtirokchisi bo'lib bolaning onasi xizmat qilsa davolash yaxshi natija beradi. Ona va bola o'rtasidagi hissiyot orqali rivojlantirish yordamida uning ruhiy, nutqiy va motorik rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Shuning uchun ona bola bilan davolash-pedagogika asoslarini o'rganishi va uni doimiy hissiyotli ta'siri orqali qo'llashi kerak.

Bolalar miya falaji - bu bosh miya harakatlantiruvchi zonalari va bosh miyadagi harakatni yo'naltiruvchi yo'llarni zararlanishi bilan kechadigan markaziy nerv sistemasida kasalligidir. Bolalar miya falajida miyaning harakat va nutq sistemasida erta organik buzilishlar ko'zatiladi. Bu buzilishlarning sabablari turlicha bo'lishi mumkin: infeksiyon kasalliklar, homiladorlik davridagi turli intoksikatsiya va jarohatlanishlar, surunkali kasalliklar, ona va homila qonining rezus faktor va guruhi bo'yicha nomunosibligi.

Bundan tashqari homilaning erta yoki kech tug'ilishi, genetik faktorlar ham asosiy shartlardan bo'lishi mumkin.

Bolalar miya falaji ona homilasining faoliyatini buzilishi natijasida sodir bo'ladigan akusherlik jarohatlari, tug'riq paytida kindikni bo'yin atrofida o'ralab qolishi natijasida ham paydo bo'lishi mumkin.

Bunday holatda bolaning markaziy nerv sistemasiga kislorod etishmay qolib, bosh miya nerv xujayralarini zararlanishiga olib keladi.

Bolalar miya falaji tug'uruqdan keyin neyroinfektsiyalarning kechishi va bosh miyani qattiq jarohatlanishidan ham kelib chiqishi mumkin.

Bu bolalarda barcha harakat funktsiyasini shakllanishida susayish va buzilishlar kuzatiladi. Boshni ushlash o'tirish, turish funktsiyalari qiyinchilik bilan yoki kechikib shakllanadi.

Bolalar miya falajida harakatni buzilishi asosiy nuqson hisoblanib, u o'ziga xos motor anamaliyani rivojlanishini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida bola asab-psixik funktsiyasini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar miya falajida harakat sohasini buzilishi turli darajada namoyon bo'ladi: harakatning buzilishi shunday og'ir bo'lishi mumkinki u bolaning erkin harakat qilishidan butunlay mahrum qiladi, muskullarning tonusi deyarli zarar ko'rmagan taqdirda ham bolalar o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini qiyinchilik bilan egallaydilar.

Bu nuqsonga ega bolalarda faqat harakat qilishdagi qiyinchiliklar muammo tug'dirmaydi, balki ularda to'g'ri harakat qilishi haqidagi tasavvurlarni yo'qligi hamda shakllanmaganligi namoyon bo'ladi. Bolalardagi harakat buzilishlari o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakalarini egallanishini murakkabligi, ularni atrofdagi kattalarga qaram qilib qo'yadi.

Bu ularda passivlikni, tashabbus ko'rsatmaslikni shakllantirib, motivatsion va irodaviy sohani buzilishiga olib keladi. Shunday qilib, harakat buzilishlari bolaning psixik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Harakatning buzilish darajasidan qa'tiy nazar bu bolalarda hissiy- irodaviy soha, xulq, intellekt, eshitish va ko'rish izdan chiqqan bo'lib, talvasa sindromi kuzatiladi.

Bunday bolalarning ko'pchiligida aqliy mehnat qilishi buzilgan bo'lib ular tez charchab qoladilar. Biror bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bajarilayoganda ular bo'shashadilar yoki tez jahillari chiqadi va berilgan topshiriqlarni qiyinchilik bilan bajaradilar. Ba'zi bolalarda charchash oqibatida harakatida bezovtalik paydo bo'ladi. Bola o'zicha har xil harakatlar qiladi, turli imo-ishoralarni ko'rsatadilar, so'lagi oqadi. Bolalarning ixtiyoriy faoliyatida tartiblikka erishish katta qiyinchilik tug'diradi. Ko'pgina bolalar taasurotlarga beriluvchan, boshqalar tez xafa bo'ladi, ovoz toniga, tanbehga yomon reaksiya qiladilar ularda qo'rquv, siydik tuta olmaslik, qayd qilish va boshqa buzilishlar kuzatiladi.

1.2. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan korrektsion ishlarni tashkil etish

Nogironlikni oldini olish maqsadlarining ijobiy hal qilinishi nogironlarning ijtimoiy tiklash bo'yicha Davlat dasturini ishlab chiqish va hayotga tadbqiq qilish bilan chambarchas bog'liqdir.

So'nggi yillarda hayotimizga kirib kelgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik sohalarga oid keskin va ziddiyatli o'zgarishlar uni tubdan o'zgartirib yubordi. Mavzuimiz maqsadi bo'lgan jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo'ltan bolalarning ko'payishiga ham olib kelayotganini aytib o'tmoqchimiz. Tayanch harakat a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar xozirgi kunda asosan uy sharoitida tarbiyalanib kelinmoqda. Shuning uchun bunday bolalarning aksariyati hali defektologik tashxis qilinmagan. Ularning ota-onalari kimlarga, qaysi mutaxassisga murojaat etish kerakligini ham bilishmaydi. Shu boisdan tserebrat falaj bolalar uyda e'tiborsiz qolib ketmoqda. Tumanlarda va qishloqlarda defektolog-mutaxassislar etishmasligi ham muammoning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Ota-onalar miya falaj bolani tarbiyalashga oid pedagogik va metodik bilimlarga nihoyatda muhtoj. Ular miya falaj farzandlari bo'lgani bois tushkunlikka tushgan, qalbi ezilgan bo'lishi barobarida, nogiron farzandlarini qanday o'stirish, tarbiyalash, maktabga tayyorlashga oid ma'lumotlarga ham ega emaslar.

Tayanch - a'zolarining harakati buzilganligi (miya falaj), poliomieliit (shol kasalligi asorati), harakat-tayanch a'zolarining turli tug'ma va orttirilgan deformatsiyasi (artrogripoz), oyoq-qo'llarning majruhligi (akondroplaziya yoki xondrodistrofiya), tana, bo'yin, boshning normal rivojlanayotgan bir paytida tug'ma oyoq - qo'l suyaklari o'sishining orqada qolishi (miopatiya), mushak to'qimalarida modda almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan irsiy kasalliklar (bunda mushaklar yaxshi qisqarmaydi, bola qo'l-oyoqlarini harakatga keltira olmaydi), afsuski, bolalarda uchrab turadigan va nogironlikka sabab bo'ladigan kasalliklardir.

Onaning homiladorlik davrida ma'lum kasalliklar bilan og'rishi, tug'ilish vaqtidagi sodir bo'ladigan patologik o'zgarishlar ushbu sababalarni keltirib chiqaradigan asosiy omillardandir. Tug'ilgandan to bir yoshgacha bo'lgan davr ichida bolaning kasallanishi oqibatida ham bosh miyaning harakat zonalarining shikastlanishi ro'y beradi va buning oqibatida miyaning yaxlit etilishi kechikadi hamda buziladi. Oqibatda bolaning umumiy hamda kutqiy motorikasi (harakatchanligi) faoliyati buziladi. Nutqning rivojlanmasligi esa intellektual rivojlanishni sekinlashtiradi.

Mana shu kabi tug'ma yoki orttirilgan kasalliklar bilan og'rigan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, ular bilan olib boriladigan ish shakllari va usullari, ushbu kasalliklar asoratlari oqibatida yuzaga keladigan nutk, motorikadagi buzilishlarni korrektsiyalash masalalari maxsus ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Shulardan rus defektolog olimlari L.S. Vmgotskiy (1985), E.M.Mastyukova (1989), E.F.Arkipova (1989), E.F.Badalyan (1988), E.F. Ippalitov (1990), I. YU.Levchenko (1989) va boshqalar miya falaj bolalar ta'lim-tarbiyasi, ularni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar va korreksion-pedagogik metodikalar yaratganlar.

Oilada nogiron farzandni tarbiyalash masalasi bo'yicha E.A.Strebeleva, V.V. Tkacheva, E.M. Mastyukova singari rus defektologlari tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Miya falaj bolalarda nutq kamchiligining eng keng tarqalgan turi bu dizartriya bo'lib, bunda bolada asosan tovush talaffuzi buzilishi kuzatiladi (S.I.Maevskaya, R.I.Martinova, E.M.Mastyukova, O.V.Pravdina, K.A.Semenova).

K.A.Semenovanning tasnifida bolalar miya falaji 5 turga ajratib o'rganiladi: spastik diplegiya, ikkilamchi diplegiya, gemiparetik diplegiya, giperkinetik shakli, atoniko-astatik shakli.

L.O. Badalyan (1988) bolalar miya falaji tasnifida bu kasallikka yo'liqqan bolalarning yoshini ham e'tiborga olgan.

Uning ma'lumotiga ko'ra, miya falaji bilan ilk yoshida kasallangan bolalarga korreksion yordam berishda bolalar miya falajining spastik diplegiya turining 70-80 foizida nutq rivojlanishining orqada qolishi va nutq buzilishlari kuzatilgan. Asosan ularda nutqni orqada qolishi, dizartriya, ba'zan motor alaliya shaklidagi nutq buzilishlari uchraydi. Bolalar miya falajining spastik turida bolalarning 50-70 foizida ruhiy rivojlanishida buzilishlar kuzatiladi. Spastik diplegiya turida bolalarning 30-35 foizida aqli zaiflik (debil) shakli ham uchrab turishini ta'kidlaydi.

1 dekabr 1993 yilda 153 mamlakat bola huquqlari haqidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish yo'li bilan, o'zlarining bolalar kelajagini muxofaza qilishga tayyor ekanligini namoish etdilar. Bola huquqlari haqidagi Konvensiya – bu butun jahon bolalariga xos bo'lgan bola huquqlari haqidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomasidir. Konvensiya - bola huquqlari haqidagi universal rasmiy Kodeksdir. Konvensiyada bolalar huquqlari to'rt toifaga ajratib berilgan bo'lib, ular 54 moddani o'z ichiga qamrab olgan.

1. Yashay olish huquqi: bola talablarini qondirish va hayotiy huquqlarni o'zida mujassam etish kabi asosiy shartlarni hamda tibbiy xizmatdan foydalana olish, ovqatlanish, boshpanaga ega bo'lish kabi adolatli, hayotiy me'yorlarni o'z ichiga oladi.

2. Rivojlana olish huquqi: bolarning o'z qobiliyatlarini kengroq rivojlantirishga erishishlari uchun zarurdir. Bunga misol qilib, bilim olish, o'yin, xordiq chiqarish, madaniy faoliyatlar, axborot olish va vijdoniy poklik kabi huquqlarini olish mumkin.

3. Bolalar zo'ravonlik va ekspulatsiya qilinishdan ximoyalangan bo'lishlari shart. Bu borada quyidagi muammolarga ya'ni: qochoq bolalar muammosi, adliya tizimidagi zo'ravonliklar, bolalarni qurolli nizolarga jalb etish muammolariga, bolalalar mehnatiga; balog'at yoshiga yetmaganlarni seksual ekspulatsiya qilish va o'smirlarning giyohvand moddalarni iste'mol qilish muammolariga alohida e'tibor bo'lishi kerak.

4. Ishtirok etish huquqi: bolani jamiyat va mamlakat hayotida faol ishtirok etishga chorlaydi. Bu toifa bolalarning hayotiga taalluqli bo'lgan muammolar bo'yicha jahonshimul yig'ilish va tadbirlarda ishtirok etish huquqini va o'z fikr-mulohazalarini aytishda erkin bo'lish kabi huquqlarni belgilaydi.

Bolalar ulg'ayib borishlari davomida jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun barcha paydo bo'luvchi imkoniyatlarning xammasiga ega bo'lib borishlari, hamda hayotiy muhim yechimlarning mas'uliyatini his qilgan holda ularni o'z zimmalariga olishga tayyor bo'lishlari kerak.

1. Konventsiyada ko'rsatilishicha bolaning huquqlarini himoya qilgan holda uning o'qish uchun huquqini amalga oshirish, bunda bolaning shaxs sifatida aqliy va jismoniy layotqatini rivojlantirish va bolaning shaxsiy xususiyatlarini saqlab qolishga intilish.

2. Korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlarga hamma, bolalarni, shular qatorida eng og'ir kamchiliklari bor bolalarni ham safarbar qilish, bunda ularning har biri uchun individual rivojlantiruvchi va korrektsiyalovchi dastur tuzish.

3. Bolaning yutuq va kamchiliklarini boshqa bolalar bilan taqqoslash mumkin emas, faqat uning o'zini oldin qanday bo'lgani bilangina solishtirish mumkin.

4. Bola uchun psixologik xavfsiz, yaxshi muhit yaratish, uning qiyinchiliklari va rivojlanish muammolarini tushunish.

5. Bolaning o'zgarishini baholagan holda uning keyingi rivojlanishidagi imkoniyatlarini tasavvur qilish.

6. Tibbiy tashxisni chuqur tushunish asosida, bolalarni hayotga ishtiyoq bilan qarash ruhida undagi shaxsiy ijobiy xususiyatlariga tayangan holda pedagogik ma'lumotni aniqlash.

7. Hamma bolalarga va ayniqsa jismonan kuchsiz, oson hayajonga tushadigan bolalarga osoyishta, bir me'yorda mehribon bo'lish.

8. Har bir bola uchun shifokor bilan birga aqliy va jismoniy faoliyatni bir me'yorda uyushtirgan holda bolaning charchab qolishining oldini olish maqsadida dastur tuzish.

9. Diqqat pasayishi, harakat yo'nalishlarining yomonlashuvi bilan birga uyquning buzilishi ham charchoqning belgisi ekanligini yodda tutish.

Bola charchaganida uxlay olmasligi yoki aksincha ya'ni tez uxlashi, lekin tez orada uyg'onib kechasi bilan uxlay olmasligi mumkin.

Bolaning asabi buzilishi, achchiqlanishi, yig'loqilik kuzatiladi.

- Har bir bolani aniq kun tartibiga o'rgatish mumkin. Bolaning faoliyati aniq tartib asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

- Bola bilan ishlayotgan har bir mutaxassis kasbiy etikaga rioya qilishi kerak. Har bir bolaning tashxisi haqdagi ma'lumot kasbiy sir bo'lib qolishi lozim.

- Korrektsion rivojlantiruvchi o'qish va tarbiya davomida bolaning ijobiy tomonlarini, uning shaxsiy layoqati, qobiliyati va qiziqishlarini kuchaytirish muhimdir.

- Har bir bola uchun dinamik individual dastur tuzish kerak.

- Aqliy va jismoniy rivojlanishni bolaning ruhiy holati: hursand bo'lishi, tinchligi, o'zini bo'sh qo'yishga tayangan holda me'yoriga etkazish.

- Sekin-asta, lekin doimiy bolani o'zining ishlarini baholashga safarbar qilish lozim.

- Har bir topshiriqni bajarganda unga ijodiy va ixtiyoriy yondoshish, hosil bo'lgan harakat usulini o'xshash usullarga o'tkazishni bolaga sabr va toqat bilan o'rgatish kerak.

Tarbiya va bilim berishning asosiy printsiplariga rioya qilish: bolaning o'z faoliyatiga qiziqishi uchun maxsus sharoit yaratish, o'qitishni gapirishga yo'naltirish, o'qishni individuallashtirish, bolada har tomonlama produktiv faoliyat turlarini rivojlantirish: rasm chizish, yasash, qo'l mehnati, applikatsiya va boshqalar.

Korreksion ishda faoliyatning har xil turlariga tayanib maxsus usul va uslublardan foydalanish: predmet amaliyoti, o'yin, oson mehnat, produktiv metodlar, lekin asosiy diqqatni o'yinga qaratish kerak, chunki bu ularning yoshiga xos turdir.

Bu yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan davolash pedagogika ishlarida har bir mashg'ulotga ilmiy-amaliy yondoshish kerak, bunda individual-shaxsiy hissiyot va intellektual imkoniyat va xususiyatlarni nazardan qochirmaslik kerak.

Rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar maqsadga yo'natirilgan tarbiyasining to'g'ri tashkil qilinishi muammoning ota-onalar va pedagoglar tomonidan aniq tushunganlaridagina ta'minlanadi.

Faqat shunday onagina pedagoglarga, birinchi navbatda farzandiga faol yordamchi bo'ladi. U bolasining muammolarini yaxshiroq tushunishga, mutaxassisning maslahatlariga quloq tutishga harakat qiladi. Bunday ona bolasini kuzatib kundalik tutadi. Bunday kundalik faqat ota-onaga emas, bolani kuzatayotgan mutaxassislarga qam juda muhim.

II-BOB. BOLALAR MIYA FALAJLANISHIDA OLIB BORILADIGAN KORREKTSION ISHLAR

2.1. Bosh miya falaji bor bolalar bilan korreksion-logopedik ishda defektologlar va ota-onalar hamkorligi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-noyabrdagi 433-son qarori bilan nogironlar ijtimoiy tiklanishining 1996- 2000 yilgacha mo'ljallangan Davlat dasturi qabul qilindi, ayni vaqtda shu maqsad bilan «Sog'lom avlod» , «Ulug'bek», «Bolalik», «Ekosan» va shu kabi jamg'armalar tashkil etildi. «Oila» ilmiy amaliy markazi o'z dasturlarini ishlab chiqdi. Uning maqsadi nogiron bolalarning ota-onalariga va ularning farzandlariga ilmiy amaliy yordam ko'rsatishni o'z dasturiga kiritdi.

Bular qo'yidagilardan iborat:

- muhtoj oilalarni qo'llab quvvatlash, ya'ni ota - onalarning bolalar oldidagi asosiy majburiyatlarini amalga oshirishda yordam berish;
- bolalarga g'axo'rlik qiluvchi ommaviy tadbirlarni yana ham samarali o'tkazish ishlarini amalga oshirish;
- bolalar imkoniyatlarini samarali va muvoffaqiyatli rivojlantirish maqsadida dasturlar , tavsiyalar , qo'llanmalar yaratish;
- bolalarni ta'minlash tizimida iqtisodiy o'zgarishlarni aniqlash bo'yicha boshqaruv tashkilotlar bilan ishlash.

Miya falaj bolaga ta'lim-tarbiya berish, uni hayotga tayyorlash asosan oilaga, ota-ona zimmasiga yuklanadi. Shuning uchun miya falaj bolalar bilan korreksion ishni amalga oshirishda ota-onalar birinchi navbatda yordamga muhtoj. Demak, miya falaj bolalarga ta'lim-tarbiya berish, nutqidagi va tayanch-harakatidagi kamchiliklarni bartaraf etish, ularni ijtimoiy hayotga faol shaxs sifatida tayyorlash yo'lida korreksion ishlarni amalga oshirishda ota-onalar hamkorligiga erishish hamda bu hamkorlikning maqbul metod va usullarini ishlab chiqish hozirgi zamon maxsus pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri bo'lsada, ammo bu muammo maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lmay kelmoqda.

Korreksion ta'sir etish faqat bolaga emas uning oilasiga ham yaxshi ta'sir etishi kerak. Bu ayniqsa bemor bola bor oilalardagi muhit bolaning davolanishi samarasiz bo'layotganini yoki natijasi kamligini ko'rishganda psixologik ziddiyat kelib chiqishi mumkinligini hisobga olish juda muhim ekanligini bilamiz. Agarda oilaning, ayniqsa bemor bolaga qarayotgan onaning o'rnini pasayganda oilaviy psixologik ziddiyat yanada chuqurlashishi mumkin.

Bunday hollarda doimiy oilaviy psixoterapiya o'tkazish lozim, uning asosiy bo'limlaridan biri onani korreksion usullarni qo'llashga o'rgatish va uni psixoterapevt nazorati ostida bemor bolasi bilan ishlashga, keyinchalik esa yordamchi sifatida boshqa bolalar bilan ham ishlatish mumkin. Bemor bolani to'g'ri tarbiya qilishda qarindoshlarning uning ahvoliga bo'lgan munosabati yaxshi bo'lishi kerak. Shuning uchun bunday bolasi bor ota-onalar mutaxassislarining malakali yordamiga, atrofdagilarning yordamiga muhtoj bo'lishadi.

Sog'lom, ayniqsa bemor bolaning rivojlanishi uchun bolaning ona bilan muloqoti juda muhim, bunda bolada ruhiy-kommunikativ xulq rivojlanadi, bu esa o'z navbatida bolaning keyingi ruhiy rivojlanishini belgilaydi.

Kasal bola tug'ilganida ona stress (kuchli ruxiy zo'riqish) holatiga tushishi natijasida bola bilan bo'lgan muloqoti me'yorda bo'lmasligi mumkin.

Bunday ona kamgap, kam kuladigan bola bilan munosabati bir tekisda yaxshi bo'lmaydi.

Bunday sharoitda davolash-pedagogika tadbirlarini olib borish qiyin, bundan tashqari bolada ikkilamchi asabiy reaksiyalar shakllanadi va rivojlanishda qoloqlik yuz beradi, ayniqsa nutqning rivojlanishi susayadi. Ota-onalar o'zlarining qayg'usiga qo'shib olmay, aksincha pedagoglarning yaxshi yordamchilari va jamiyatning faol ishtirokchilari bo'lib, sekin-asta atrof-muhitga farzandlarini ham o'rgatib borishlari kerak. Bola o'zining boshqacha ekanligi va kamchiligi borligini sezdirmaslik juda muhim.

Ona esa o'zini aybdor deb qolmasdan o'zining ko'rkamligini, odamshinavandaligini yo'qotmasligi, qiziqishlari, do'stlarini asrab qolishi kerak. Boshqa aka-singillarning ham huquqlari poymol qilinmasligi zarur.

Ko'p hollarda sog'lom bolaga bunday oilalarda kam e'tibor beriladi, kasal ukasiga yonbosishini, shikoyat qilmaslikni talab qilishadi. Bularning hammasi sog'lom bolaning bemor bolaning shaxs sifatida shakllanishida yomon aks etishi va oilaning psixologik iqlimining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ota-onalar arzimagan narsalar uchun kasal bolaga baqirmasligi, nohaq jazolashligi, undan tashqari sog'lom aka yoki opalarini misol qilishlari mumkin emas.

Kamchiligi bor bolani tarbiyalashda unda o'z-o'ziga xizmat qilishni o'rgatish va shu orqali uni oila hayotiga jalb qilish kerak.

Kasal bolaning ota-onasi oilada davolash pedagogikaning mutaxassisi bo'lib qolmay, psixoterapevt ham bo'lishlari kerak.

Oilada normal psixologik sharoit bo'lishi uchun ota-onalar kengashi yordam beradi. Hozirgi vaqtda dunyoda shular qatorida bizda ham bunday kengashi kengayib bormoqda. Davolash — pedagogikasi va korrektsion ishlarni bola bilan olib borish juda qiyin ish. Bolaning deffekti (nuqsoni) qanday bo'lishidan qat'iy nazar unga hamma oddiy, tabiiy munosabatda bo'lishlari kerak.

Shunday qilib davolash — pedagogikasi va korrektsion ishlarni olib borish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun pedagog — defektolog, logoped, shifokor, psixolog va ota —ona birgalikda ishlashlari lozim. Davolash — pedagogik tadbirlarning asosiy qismi erta tiklash va rivojlantirish ishlaridir. Maxsus davolash ishlarini erta qo'llash nerv, bo'g'in va suyak sistemalarining o'zgarishini oldini olishi mumkin.

Rivojlanishda kamchiliklari bor bolalar bilan erta kompleksli ish olib borishda har xil mutaxassislar: bolalar vrachi, bolalar nevropotologi, bolalar psixiatri, ortoped, shifokor yoki davolash gimnastikasining metodisti ishtirok etadi. Ko'p hollarda okulist, surdolog, endokrinolog, vrach-genetikning yordami ham kerak bo'lib qoladi. Ota-onalar kasal bolasining tuzalishi bu uzoq jarayoni ekanligini tasavvur qilishlari, o'z navbatida pedagogik mashg'ulotlar, logopedik ishlar, davolash fizkul'turasi bilan birgalikda o'tkazilishi kerakligini tushunishlari lozim.

Bolani parvarishlashda onani maxsus sohalarga, massaj asoslariga davolash gimnastikasiga, ortopedik kun tartibiga, nutq terapiyasiga o'rgatish kerak.

Davolash — pedagogik ishlar ko'pgina hollarda har bir bolaning birlamchi rivojlanishidagi kamchiligini hisobga olgan holda differentsial yondashishni talab qiladi.

Davolashda samarali natija beruvchi metodlarni tuzish uchun birlamchi nuqsonning xarakterini, uning boshqa ruhiy nuqsonlarning kelib chiqishiga ta'sirini bo'lish-bo'lmasligini bilish kerak. Birlamchi nuqson turli bolalarda turlicha bo'lishiga qaramay kelib chiqadigan o'zgarishlar bolaning keyingi hayotiga salbiy ta'sir etadi. Birlamchi kamchilikning kelib chiqish vaqti muhim ahamiyatga ega. Noto'g'ri rivojlanishning barvaqt kelib chiqishi hamma barcha bolalarda bir xil namoyon bo'ladi.

Markaziy nerv sistemasidagi erta ro'y bergan birlamchi kamchiliklar bolaning ruhiy rivojlanishidagi yo'nalishni buzadi.

Shunday qilib, tug'ma karlik yoki eshitish buzilishlari nutqning rivojlanmay qolishi kelib chiqadi. Nutqning rivojlanmay qolishi esa bolaning fikrlash qobiliyatiga salbiy ta'sir etadi. Tug'ma ko'rlik yoki ko'rishdagi buzilishlarning erta kelib chikishi bolani predmetni tasavvur qilish qobiliyatidan mahrum qiladi va so'z bilan gapirilayotgan narsani ko'rmagandan keyin o'ziga xos fikrlash faoliyatining buzilishiga olib keladi. Barcha hollarda davolash pedagogikasi birlamchi nuqsonning buzilishi va ikkilamchi nuqson kelib chiqadigan kamchiliklarning tuzilishiga asoslanib ish yuritadi.

Korreksion ish olib borilganda iloji boricha buzilgan funktsiyalarni to'g'rilash bo'yicha zahiradagi imkoniyatlardan foydalanish kerak. Ilk yoshda bolaniig miyasi katta, yuqori hajmdagi imkoniyatga ega bo'lishini esda tutish kerak.

Asosiy kamchilikning tuzilishiga qarab bir necha anomal rivojlanish shakllari bo'ladi, ularning har biri uchun maxsus o'qitish va tarbiyalash sistemasi kerak. Ular hozirgi vaqtda maktabgacha tarbiya va maktab ta'limining maxsus dasutri qilib chiqarilgan.

2.2. Bosh miya falaji bor bolalarni hayotga moslashtirishda defektologlarning korreksion rivojlantiruvchi ishi

Jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri buyuk Vatanimizning kelajagini yaratuvchi yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlarni tarbiyalashdir. Bu ishni amalga oshirishda, ya'ni sog'lom avlodni shakllantirish ishlarida oila asosiy o'rinni egallaydi. Bugungi kunda har bir oila bolaning unga bitilgan sog'lom tarbiya ertangi kun yaratuvchisini sog'lom bo'lib etishishini ta'minlaydi.

“Sog'lom avlod uchun”, “Oila kodeksi”, “Ta'lim” to'g'risidagi qabul qilingan qarorlar va dasturlar nogironlikni oldini olish ularning muhitini yaxshilash, ilk bor nogironlikni aniqlash, saralash, maxsus ta'lim-tarbiya berish va korreksion-pedagogik ishlar orqali korreksiyalash, kasbga yo'naltirish, jismoniy tarbiyalash, nogironlar bilan ishlash uchun kadrlar tayyorlash masalalari yoritilgan.

Respublikamizda qabul qilingan “Bolalik ” nogironligi masalalari, ularga g'amxo'rlik qilish, hayotga moslashtirish ishlarini tashkil etish konsepsiyasi umumjahon tajribalariga asoslangan xolda ishlab chiqilgan bo'lib, nuqsonni bartaraf etishni faollashtirishning qo'yidagi dolzarb muammolarini hal etishni va amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi.

O'zbekistonda maxsus ta'lim tizimi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, sivilizatsiya yutuqlaridan foydalangan holda rivojlanib borishni talab etadi.

Bosh miya falaji bolalarda kompleksli davolash — pedagogik ishlar qancha erta boshlansa nutq motorikasining rivojlanishi shuncha yaxshi kechadi. Korreksion ishlar bolaning yoshi va kasallik shakliga qarab olib boriladi.

Ruhiy rivojlanishni rejalashtirish 1 yoshgacha bo'lgan davrda bolaning ko'rish, eshitish va sezish kabi xususiyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bola hayotining birinchi onlaridayoq harakat ko'nikmalaridan tashqari sezgi ko'nikmalari ham rivojlantiriladi.

Ertaroq qo'l bilan ushlab harakatlar qilishni tarbiya qilinadi. Shu maqsadda bolaning qo'lga turli o'yinchoqlar tutqaziladi.

Sezgi nuqtalari shyotka bilan uqalanadi. Bunda bilaklar va barmoq uchlari har xil qattiqlikdagi shyotka bilan uqalanadi.

O'yin faoliyati davomida kattalar yordamida tormozlanish va engillashtirish metodlari orqali sensor — motorik xulq va tovush reaksiyalari yaxshilanadi. Bunda patologik (nuqsonli) harakatlar ro'y berishi mumkin, shuning uchun bolaning boshi, tanasi va qo'l-oyoqlari maxsus qurilmalar orqali ushlab turiladi, buning natijasida artikulyatsion apparat, ko'rish-motorik harakatlar engillashadi.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davrda bolani buyumlardan foydalanishga va atrofdegilar bilan muloqot qilishga o'rgatiladi.

Buyum-amaliy faoliyati davomida kattalar yordamida so'z, buyum va harakat o'zaro bog'lanadi. Bolaga buyumlarni nomini aytishni, nima uchun kerakligi tushuntiriladi, ular bilan qanday harakat qilish ham tushuntiriladi. «Iltimos» so'zi bilan murojaat qilishga o'rgatiladi.

Sensor funktsiyalarni mashq qildirish uchun turli xil predmetlardan, ya'ni har xil shakl, rang, uzunlikdagi masalan, doirachalar, yuzasi turli xil g'adir-budur buyumlardan foydalaniladi. Bolani turli buyumlarni masalan: juft rasmlarni, geometrik figuralar, har xil o'yinchoqlar, matryoshkalarni taqqoslashga o'rgatiladi. Bolaning harakatlari kattalar orqali kuzatiladi va lozim bo'lsa yordam berib boriladi.

Konduktiv tarbiya va o'kitish davolash — pedagogik ta'sir orqali ichki nutq, harakatni esa ritm orqali tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Shu maqsadda bola 1dan 5gacha sanab bir xildagi mashqlar (ya'ni tepaga — pastga va boshqalar)ni bajaradi. So'z bilan ko'rsatma berilganda bola ularni eslab qoladi. Ko'rsatma berilganda harakatni ham ko'rsatib, ularni bajarishda bolaga yordam berish kerak. Masalan: «chapaklar» — «qarsaklar», «xayr», «qanday katta ekanligingni ko'rsat» va boshqalarni tushuntiriladi. Kattalar va bola o'rtasida hissiy-ijobiy muloqot sodir bo'ladi.

Erta logopedik ish

Bosh miya falajida nutq buzilishlarining turli xil shakllari kuzatiladi. Dizartriyada nutq va skelet motorikasi buziladi.

Bola o'z qo'l-oyoqlari va artikulyatsiya a'zolarini yaxshi xis qila olmaydi. Buning natijasida dispraksiya hosil bo'ladi.

Bosh miya falaji bor bolalar bilan logopedik ish olib borilganda og'izda artikulyatsion dispraksiya sodir bo'lishining oldini olish kerak, chunki bu holat harakat yo'nalishlarining, hamda tovush talaffuzining buzilishiga olib keladi. Artikulyatsiyani yaxshilash uchun oyna oldida har xil mashqlar bajariladi. Bu mashqlar avval ko'zni ochgan holda, keyin esa yumgan holda bajariladi.

Bunday ishlarning olib borilishi juda muhim, chunki aks holda nutq leksika jihatidan rivojlanmay qoladi.

Logopedik ishlarni qo'l funktsiyalari bilan birgalikda olib borish zarur.

Tovush talaffuzi buzilishlari Bosh miya falajida turli dizartriya shakllarida namoyon bo'ladi. Logopedik faoliyat ham dizartriya shakliga qarab olib boriladi.

Psevdobul'bar dizartriyada Bosh miya falaji bor bolalarda nutqiy va skelet muskullarining tonusini pasaytirish lozim, bunda logopedik ish uchun o'ziga xos poza va holatlarni tanlash kerak.

Ekstrapiramilar dizartriyada muskul tonusining ko'tarilishi doimiy emas. Lekin karlik ko'pincha shu turda uchraydi.

Dizartriyaning hamma turida quyidagi yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi (massaj va gimnastika).

1. Dizartriyaning turi va bolaning yoshi aniqlanadi;
2. Nutk kommunikatsiyasini rivojlantirish;
3. Kasallikni engishga bo'lgan intilish kuchli bo'lishi lozim;
4. Eshitish va tovushni to'g'ri qabul qilishni kuchaytirish.

Dizartriyada logopedik ish bosqichma-bosqich bajariladi.

Birinchi bosqich-tayyorlov bosqichi. Asosiy maqsadlar artikulyatsion apparatni tayyorlash. Bolada erta yoshdayoq muloqot qilishga qiziqishni tarbiyalash zarur.

Bu bosqichda sensor funktsiyalarni rivojlantirish juda muhim. Metod va usullar bolaning nutq rivojlanganligi, yoshi va dizartriya turiga qarab belgilanadi.

Logopedik ish davolovchi ta'sir, fiziodavolash, davolovchi jismoniy tarbiya va massaj bilan birgalikda olib boriladi.

Ikkinchi bosqich ilk kommunikativ talaffuz ko'nikmalarining shakllanishi. Asosiy maqsad: nutqiy so'zlashish va tovush tahlilini rivojlantirish.

Artikulyatsion buzilishlarni to'g'rilash bo'yicha ish olib boriladi: artikul'yatsion apparat muskullarni bo'shashtirish, og'iz harakatining nazorati, to'g'ri nafas olishni o'rganish, tovushni rivojlantirish, artikul'yatsion harakatlarni rivojlantirish. Keyin yuzni bo'shashtiruvchi massaj qilinadi. Harakatlar peshona o'rtasidan barmoq uchlari bilan engil silash bilan bajariladi.

Bo'shashtiruvchi yuz massajining 2-yo'nalishi - qoshdan boshning sochli joyigacha harakat bilan boshlanadi.

Harakatlar bir tekisda 2 qo'l bilan bajariladi. 3 - yo'nalish - harakat peshona chizig'idan yuz, bo'yicha va elka bo'ylab bajariladi.

Keyin lab to'qimalarini bo'shashtiruvchi mashqqa o'tiladi. Logoped o'zining ko'rsatkich barmoqlarini yuqori lab o'rtasidagi nuqta va lab burchaklariga qo'yadi. Harakat o'rtaga yo'naltiriladi, yuqori lab vertikal holatga keladi. Pastki lab bilan ham shunday mashq o'tkaziladi.

Keyingi mashqda logoped ko'rsatkich barmoqlarini oldingi holatga qo'yadi, lekin endi harakat yuqoriga qarab tepa lab ustida bo'lib bunda yuqori tishlar ko'rinadi, pastga harakat qilinganda pastki tishlar ko'rinishi kerak. Keyin logopedning ko'rsatkich barmoqlari lab burchaklariga qo'yiladi va lablar kulayotganday cho'ziladi va yana o'z holiga qaytariladi.

Bu mashqlar og'iz ochiq, yarim ochiq, katta ochiq holatlarda o'tkaziladi. Bolani passiv - aktiv harakatlarga o'rgatiladi, bunda bola lab bilan konfet, tayoqchalar ushlashni, salomkadan ichishni o'rganadi. Keyin til, mashqlariga o'tiladi. Og'izda tilni pastga harakat qildirmoqchi bo'lsak, pastki jag'ni pastga tushiramiz, ya'ni bunda og'iz katta ochiladi.

Logoped esa shu holatda til depressori bilan engil gorizontal holatda tilni bosadi. Keyingi mashqda tilni u yoqdan-bu yoqqa arg'imchoqdek harakatga keltiriladi.

Artikulyatsion gimnastika juda muhim, bunda tilni pastki tishlarga tekkiziladi. Passiv (nafaol) lug'atni quyidagi so'zlar bilan boyitiladi: shakl, kattalik, rang, xuddi shunaqa, o'xshash, kattaroq, kichikroq. Predmetlarni taqqoslashni o'rgatiladi: shar — sharcha, katta — kichik va hokazo. Predmetlarning nima uchun kerakligi tushuntiriladi: qoshiq bilan ovqat eyiladi, krovatda uxlashadi va hokazo. Bolaga kitobdagi rasmlarni ko'rsatib tushuntiriladi va savol beriladi. Katta barmoq ishtiroki bilan ushlanadigan o'yinchoqlar tanlanadi. O'yin faoliyati katta ahamiyatga ega. Bunda bolani tengdoshlari muloqot qilishga, gigienaga e'tibor berishga, ko'rish-motor koordinatsiyalariga o'rgatish, shakllantirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilak va barmoq mashqlariga katta e'tibor beriladi. Bilak funktsiyalarining rivojlanishida biror narsani ushlash, pastga tushirish mashqlari bajariladi. Bosh miya falaji bor bolalarni tarbiyalashda uning hissiy, irodaviy tomonlarini rivojlantirish muhim. Asablarini tinchlantirish, qo'rquvlarni yo'qotish, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash zarur. Bosh miya falaji bor bolalarda ruhiy infantilizm rivojlanishi kuzatiladi. Infantilizmning rivojlanmasligi uchun bolada irodani mustahkamlash zarur.

2.3. Bosh miya falaji bor bolalar harakatlarni rivojlantirish va me'yorlashtirishda jismoniy tarbiya ishlarining asosiy vazifasi

Bosh miya falaji bor bolada harakat funktsiyalari tug'ilgandayoq buzilgan bo'ladi. Buning negizida normal reflekslarning rivojlanganligi yotadi, ular orasida pozotonik reflekslar katta ahamiyatga ega.

3 oylik bolada bu reflekslar bilinmaydi va o'z navbatida normal reflekslar rivojlanadi. Shuning uchun davolashda quyidagi noto'g'ri xolatlardan yiroq bo'lish kerak:

- orqada yotib bo'yin, qo'l, oyoq muskullarini kuch bilan harakat qildirish mumkin emas. Harakatlar engil bo'lishi kerak;
- shu xolatda tananing assimmetrik xolatdan asrash zarur;
- bosh va ko'zlarni oyoq-qo'llar buklanmagan bo'lsa ular tomonga burish kerak emas.

Har bir bolaga uning yoshini xisobga olib individual davolash jismoniy tarbiyasi belgilanadi.

Bosqichma-bosqich hamma harakat faoliyati rivojlanadi: burilishlar, o'tirib tizzada turish, keyin oyoqda, qorni bilan yotqizib so'ng asta emaklatish. Boshlang'ich bosqichda bolani boshini ushlash bo'yicha mashqlar bajartiriladi, tananing tepa qismini bukish, keyin bilak, qo'llarga tayanish o'rgatiladi. To'rt oyoqlab yurish mashq qilinadi. Vertikal turish va yurish rivojlantiriladi.

Bu mashqlarni o'tkazish maxsus adabiyotlarda berilgan. Bolalarni jismonan tarbiyalashda qo'llarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar juda muxim. Qo'l faoliyatining rivojlanishi umumiy va artikulyatsion motorikaning shakllanishiga bog'liq. Muloqotning erta bosqichi bu jest tili ekanligi ma'lum. Qo'l mashqalari ruhiy va nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bolani predmetni ushlashga va pastga tushirishga o'rgatish kerak. bunda albatta katta, ko'rsatkich va o'rta barmoqlar ishtirok etishi zarur. Qoshiqda ovqat eyishni mashq qildirish ham juda foydali.

Bosh miya falaji bor bolalar faqat predmetni ushlashga qiynalib qolmay uni tushirish va barmoqlarni ochishga o'rgatish zarur.

Mustaqil yurishni o'rgatish juda muhim. Bunda bosh va tanani vertikal holatda ushlashga o'rgatish, og'irlikii kerakli tomonga og'dirish va ikkala oyoqqa og'irlikni to'g'ri taqsimlashni o'rgatish zarur. Avval bolani turishga va yordamchi vosita bilan yurishga o'rgatiladi. Bolaning oldiga stulni qo'yib undan tayanch sifatida foydalanib yurish mashq qilinadi.

Bosh miya falaji bor bolalarda turish va yurish oyoqning qay darajada zararlanganligiga bog'liq. Agarda bola qo'ldan tayanch sifatida foydalana olmasa bu funktsiyalarning rivojlanishi yanada qiyinlashadi.

Turli massajlar ham bolaning mustaqil harakat qilishiga yordam beradi. Klassik davolash massaji muskullarni bo'shashtirib kuchsiz to'qimalarni kuchaytiradi. Massajning turli usullari qo'llaniladi: silash, silkinish, nuqtali va vibratsion.

Bulardan tashqari ortopedik muolajalar zarur bo'ladi (maxsus gips bog'lamlar, boshni ushlash uchun maxsus qurilmalar va hokazo).

Hozirgi kunda k'oplab rivojlangan mamlakatlarning inklyuziv ta'lim sohasida erishgan yutuqlari va amaliy ishlar haqida maqolalar yoritilmoqda. Yosh bolalar rivojidagi jismoniy va ruhiy nuqsonlarning turlariga va zaifliklarining qay darajadaligini inobatga olib turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan amaliy choralar ularni integratsiyalash va jismoniy tiklashda muhim omil bo'lmoqda.

Respublikamizda esa ushbu muammoga Davlat nuqtai nazaridan katta e'tibor berilib, YUNESKO tashkiloti hamkorligida bosqichma-bosqich tatbiq etilayotgan inklyuziv ta'lim amaliy dasturi qo'llanilmoqda. Ushbu tavsiyada miya falaji bor bo'lgan bolalarni ijtimoiy tiklash va integratsiyalashda davolovchi jismoniy tarbiyaning alohida ahamiyati borligi haqida so'z boradi. Ma'lumki, harakat buzilishlarini o'rta va tizimli tarzda bartaraf etish-davolash pedagogik tadbirlar majmuasi bilan birgalikda amalgam oshiriladi. Shuningdek, bolalar bosh miya faoliyatining kompensator imkoniyatlarini aniqlash va ko'plab murakkab nuqsonlarni bartaraf etish va oldini olishga imkon yaratadi.

Ushbu jarayonda jismoniy tarbiya alohida o'rin tutadi.

Bosh miya falaji bor bolalar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya ishlarining asosiy vazifasi harakatlarni rivojlantirish va me'yorlashtirishdir. Shuning uchun, bolaning harakat funksiyalarini rivojlantirishda avvalo tananing barcha a'zolarining holatini nazorat qilish zarur. Bosh miya falaji bor bola tetiklik vaqtida 20 daqiqadan ortiq bir xil holatda qolishi mumkin emas. Bola uzoq vaqt davomida boshini osiltirib, oyoqlarini bukib, yig'ib, yelkalarini qiyshaytirib o'tirishlari mumkin emas. Kun davomida bolani bir necha marotaba qoringa, qo'l, oyoq, yelka va boshini egib mashq qildirish tavsiya etiladi. Bosh miya falaji bor bolalarda ixtiyoriy harakat ilk malakalarini shakllantirish maqsadida katta plyaj koptoklari, turli tutquchli dastak, yostiqchalar kabi maxsus moslamalardan foydalanish lozim. Bosh miya falaji bor bolalarning harakatlarini rivojlantirishda davolovchi gimnastika yetakchi o'rin tutadi. Serebral falajda harakat buzilishlarining o'ziga xosligini inobatga olib, davolovchi gimnastika quyidagi asosiy vazifalarni hal etadi:

- Boshning fazoda va tanaga nisbatan munosabatining to'g'ri nazoratini ta'minlash, postural mexanizmini, muvozanatni, va tanani to'g'rilashni rivojlantirish;

- Qo'l faoliyati va predmetli-manipulyativ faoliyatni rivojlantirish;
- Ko'ruv motor koordinatsiyasini rivojlantirish;
- Tana a'zolarining nomutanosibligi va noto'g'ri holatini bartaraf etish;
- Ikkilismchi harakat stereotiplarining shakllanishini bartaraf etish.

Davolovchi badan tarbiya bosh miya falaji bor bolalarda harakat sezgilarini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, badan tarbiya jarayonida qo'l-oyoq holatlari me'yorlashadi, mushaklar tonusi pasayadi, zo'raytiruvchi harakatlar kamayadi yoki bartaraf etiladi. Buning natijasida bola holatini va harakatlarini to'g'ri xi seta boshlaydi. Davolovchi mashqlarning bajarilishida ko'ruv (mashqlar ko'zgu oldida bajariladi), taktil (qo'l-oyoqlarni silash, turli matolar bilan o'ralgan tekislikda qo'l-oyoqlarni tayantirish, va boshqa (ochiq, yopiq ko'z mashqlar) sezgilari shakllanadi.

Ovoz va nutq stimullaridan mashqlar davomida keng foydalaniladi. Ko'pgina mashqlarni, ayniqsa zo'riqtirish harakatlari bilan bog'liq mashqlarni musiqa sadolari ostida bajarishlari yaxshi samara beradi. Aniq nutqiy yo'riqnoma bolalarning ruhiy faoliyatini me'yorlashtirib, maqsad intilishni rivojlantiradi, nutqiy tushunishni yaxshilaydi, lug'atni boyitadi. Shu tarzda bolada harakat analizatori bilan turli aloqalar shakllanadi, bu esa ruhiy rivojlanishining muhim omili sanaladi. Hozirgi kunda yosh avlodning benuqson rivojlanishida ayniqsa umurtqa, tos suyaklari va oyoq-qo'lni to'g'ri shakllantirishda suzish mashqlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Suzish Bosh miya falaji bor bolaga ham tavsiya etiladi, bu jarayonda harakat-tayanch apparati va bolaning mustahkam bo'lmagan umurtqasiga nisbatan tana og'irligining bosimi kamayadi, oyoqlarning tayanch kuchining shakllanishi va mustahkamlashi uchun maqbul sharoit yaratiladi. Oyoqning tayanchsiz holatidagi dinamik tarzda ishlatilishi esa tovonni to'g'ri rivojlanishiga yordam beradi va yassi oyoqlikning oldini oladi. Tutqanoqlar kuzatiladigan bolalarga suzish ta'qiqlanadi. Bosh miya falaji bor bolalarda harakatlarni me'yorlash va rivojlantirishda gidrokinezoterapiya-suvda jismoniy mashqlarni o'tkazish alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, faol harakatlarni shakllanishining boshlang'ich davrida, suvda olib boriladigan davolovchi jismoniy tarbiya mashqlari yaxshi samara beradi. Suv muolajalari yordamida qo'zg'lish va tormozlanish jarayonlari me'yorlashadi, mushaklar tonusi pasayadi. Tana a'zolari va to'qimalarining qon aylanishi yaxshilanadi. Bosh miya falaji bor bolalar harakatlarini rivojlanishi uchun davolovchi uqalashdan keng foydalaniladi. Uqalash ta'sirida teridan asab yo'llari orqali impulslar to'plami markaziy asab tizimiga boradi. Bola qancha yosh bo'lsa uning asab-ruhiy faoliyatini rivojlantirish uchun taktil qo'zg'atuvchi shunchalik katta o'rin tutadi.

Uqalash bola organizmiga har tomonlama ta'sir etadi. Uqalash natijasida asab tizimi faoliyati me'yorlashadi, limfa oqimi tezlashadi, shu tariqa to'qimalarni moddalar almashinuvi mahsulotlaridan tez va sifatli tozalashiga yordam beradi, mushaklar dam oladi, qon aylanishi yaxshilanadi, atrofiyani sekinlashtiradi.

Uqalash usullari serebral falajning shakli va alohida mushaklar guruhining holatiga ko'ra tanlanadi.

Bosh miya falaji bor bolalar shamollash va infeksiyon kasalliklariga juda beriluvchan, ayniqsa, yuqori nafas yo'llari kasalliklariga tez chalinadilar. Bu holatlar markaziy nerv tizimi zararlanishi bilan bog'liq organizm retivligining umumiy pasayishi va yuqori nafas yo'llarining tez-tez shamollashi bilan bog'liq.

Falaj bolalarning sog'ligini mustahkamlash uchun ularni erta yoshdan boshlab chiniqtirish lozim. Chiniqtirish usullari kasallikning darajasi, bolaning yoshi, o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra tanlanadi. Bosh miya falaji bor bilan tug'ilgan bola hayotining birinchi yilida chiniqtirish tadbirlari alohida kunda o'tkaziladi, keyinchalik esa bu tadbirlar kundalik parvarish jarayonida amalga oshiriladi. Bosh miya falaji bor bolalarni jismoniy tarbiyalash xuddi sog'lom bolalar kabi harakat funksiyalarining bosqichma bosqich shakllanishining nazariy konseptsiyasiga asoslanadi. Jismoniy tarbiya jarayonida bolaning yoshi harakat kamchiliklarining sifat xususiyatlari bilan birgalikda bolaning ruhiy xususiyatlari matorikasi rivojlanish darajasi ham inobatga olinadi.

Ushbu tavsiyalar nihoyasida shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ijtimoiy tiklash va integratsiyalashda shifokor, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va ota-onalardan yuqori malaka va fidokorlik talab etiladi.

2.4. Bolalar miya falajida olib boriladigan logopedik ishlarning o'ziga xos xususiyatlari

Bolalar miya falaji klinikasida nutq buzilishi asosiy o'rinni egallaydi. Bolalar miya falajida nutq buzilishi chastotasi 80% tashkil etadi. Nutq buzilishlarining o'ziga xos tomonlari miyani qay darajada zararlanishiga qarab belgilanadi. Miya falajga ega bolalarda ba'zi miya sohasidagi zararlanish bilan birga bosh miya po'stloq qismining buzilishlarini ikkilamchi rivojlanmaganligi yoki kech shakllanganligi ham namoyon bo'ladi. Bu miyaning ontogenetik tomondan yosh bo'lgan bo'limlari bo'lib, u insondagi psixik va nutq faoliyatini shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Bolalar miya falajida nutqni kech rivojlanishiga sabab, miyaning po'stloq bo'limlarini sekin shakllanishigagina emas, balki ularda amaliy faoliyatni etarli emasligi, atrof - muhit haqida bilim va tasavvurlarni etishmasligidir. Tarbiyaning noto'g'ri kechishi nutq rivojlanishini orqada qolishini murakkablashtiradi. Bu bolalar hayotining birinchi yillarida turli davolash muassasalarida bo'ladilar, agarda u erda pedagogik ishga yaxshi ahamiyat berilmasa bolaning nutqiy rivojlanishi kechishi mumkin. Bundan tashqari, bolalarning onasidan uzoqda bo'lishi salbiy emotsional holat, yangi muhitga o'rgata olmaslik nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uy sharoitida kattalar bolani juda avaylab hamma majburiyatni o'z zimmalariga oladilar. Bu bolalarda faoliyat va nutqiy muloqatga bo'lgan talabni shakllantirmay qo'yadi. Bolalar miya falajida nutq buzilishlari patogenezida harakat patologiyasi muhim o'rin tutadi.

Bu bolalar bilan logopedik ishni tashkil qilishda nutq va harakat buzilishlarini klinik va patogenetik umumiyligini tushunish ahamiyatli hisoblanadi.

Bolalar miya falajida matorikani buzilishini o'ziga xos tomonlari bu ixtiyoriy harakatlarni shakllanmaganligi emas balki sodda tug'ma harakat avtomatizmlarini saqlanib qolganligidir. Normal rivojlanishda bu reflekslar bolaning ikki oyligida paydo bo'ladi.

Tonik labirint refleksi namoyon bo'lishi bolaning bel sohasidagi bukuluvchi muskullarning tonusi oshmaganligida ko'rinadi. Uning boshi orqaga egilib bo'yin va artikulyatsion muskullar taranglashgan, oyoq va qo'llar cho'zilgan holda bo'ladi, bunday bola boshini ko'tara olmaydi yoki qiyinchilik bilan bajaradi, o'girila olmaydi. Qornida yotganda bukuluvchi muskullar tonusda bo'ladi, shuning uchun u boshini ko'tara olmaydi.

Simmetrik buyin tonik refleksi namoyon bo'lishida muskul tonusi bolaning boshini joylashishiga qarab o'zgarib turadi.

Assimetrik bo'yin tonik refleksi boshni bir tomonga o'girganda o'sha tomondagi qo'l va oyoqni to'g'rilovchi muskul tonusi oshishi bilan namoyon bo'ladi. Bunday bolalar bilan logopedik ish o'tkazilganda tonik refleksi artikulyatsion apparatning muskul tonusiga ta'sir o'tkazishini hisobga olish zarur. Tonik labirint refleksi til ildizini muskullarini tonusini oshiradi.

Simmetrik tonik refleksida tilni uchi va yon muskullari tonusi oshadi. Bunda ovoz hosil bo'lishi, nafas olish, og'izni ixtiyoriy ochish, tilni oldinga va yuqoriga harakatlantirish qiyin kechadi.

Assimetrik bo'yin tonik refleksida nutq muskulaturasida tonus oshadi: tonus bolani boshini o'girayotgan tomonga qarama - qarshi ravishda oshadi.

Bolalar miya falajida artikulyatsion motorikani buzilishini o'ziga xos tomonlaridan biri og'iz avtomatizmi bilan bog'liq tugma reflekslarni qayta rivojlanishidagi to'xtab qolishdir: bular so'rish, yutish reflekslari, tishlash va boshqalar. Bu reflekslarni namoyon bo'lishi ixtiyoriy artikulyatsion harakatlarni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Nutq-harakat analizatorlarining organik zararlanishi nutq tovushlarini artikulyatsiya qilishni buzilishiga, ovozni, nafasni, nutq tempi va ritmi uning intonatsiyasini izdan chiqishiga olib keladi. Fonetika-fonematik buzilishlar etakchi hisoblanadi. Bular bolalar miya falajida dizartriyaning o'ziga xosligi, bu uni nutq muskullariga tonik reflekslar orqali ta'sir etishda namoyon bo'ladi. Bu esa o'tkaziladigan logopedik ishni o'ziga xos ravishda o'tkazishni talab etadi.

Logopedik ish bolani shunday holatida o'tkaziladiki, tonik reflekslar nutq matorikasiga deyarli ta'sir o'tkazmasin. Bu holat logoped va nevropatolog hamkorligini talab etadi. Agarda bola logopedik mashg'ulot o'tilayotganda o'tirgan holat bo'lsa diqqatni uni boshini harakatiga aratish zarur: bosh u ko'krakka ham tushib ketmasligi, atrofga ham qiyshaymasligi, orqaga ham ketib qolmasdan o'rta chiziqda turishi zarur. Zarur hollarda bosh maxsus apparat yordamida ushlab turiladi. Mashg'ulot o'tkazilayotganda oyna va logopedning yuzi bola ko'zi chizig'ida joylashishi zarur.

Bola uchun zarur holat tanlangandan so'ng massajga so'ngra artikulyatsion muskulatura gimnastikasiga o'tiladi.

Bolalap miya falajidagi dizartriyaning o'ziga xos tomonlari bu umumiy va nutqiy matorikani buzilishi, dizartriya turli shakllarini, bolalar miya falajini ma'lum bir shakllari bilan bog'liqligidir. Ishni tayyorlov davrida umumiy muskullarni bo'shashtirish va nutq muskulaturasidagi tonusni kamaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

Spastik diplegiyada psevdobul'bar dizartriya 80%, gemiparitik shaklida esa kasallarning uchdan bir qismida (30-35%) kuzatiladi

Bolalar miya falajining giperkinetik darajasi miyaning qobiq osti bo'limlarining jarohatlanishi bilan bog'liqdir.

Umumiy va artikulyatsion motorikasidagi buzilishlar quyidagilarda namoyon bo'ladi: muskul tonusining o'zgaruvchanligi (distoniya), harakatlarning ixtiyorsizligi, harakat va nutq aktidagi xissiyotning yo'qligi. Nutqning prosodik tomonlarida kamchiliklarni yaqqol namoyon bo'lishi.

Harakat motorikasidagi kabi nutq motorikasida ham kerakli holatlarni ushlab tura olish buzilgan bo'ladi.

Harakatdagi kamchiliklaridagi va nutq harakati artikulyatsion, nafas muskulaturasida, halqum paylariga tarqaluvchi tonik spazmalar hisobiga qiyinlashishi mumkin.

BMFning geperkinetik shaklida (ekspiramid) ekstrapiramid, yoki boshqacha qilib aytganda qobiq osti dizartriya ko'zatilishi mumkin.

BMFning **giperkinetik** shakli uchun ko'p hollarda kuzatiladigan (5 dan 20%gacha) eshitish qobiliyatining susayishi harakterlidir.

BMFning atonik-ataktik shaklida miyachaning va uning miyaning boshqa tizimlari bilan bog'liq bo'lgan joylari, ayniqsa katta yarim sharlarning peshona bo'limlarining jarohatlanishi kuzatiladi. Umumiy va artikulyatsion motorikaning buzilganligi muskul tonusining sustligi, harakatlar aniqliligining yo'qolganligi, ritmining buzilganligida namoyon bo'ladi. BMFning bu shaklida miyachali dizatriya kuzatiladi. Uning chistotasi 70-75% ni tashkil etadi.

BMFning eng og'ir shakli ikki tomonlama gemiplegiya hisoblanadi. Bunda katta yarim shakllarning jarohatlanishi kuzatiladi. Bunda oyoq va qo'llar harakati, ko'proq qo'llar harakati buzilgan bo'ladi. Bolalarda statik va lokomotor funktsiyalar yo'q bo'ladi. Nutq buzilishlari isevdobul'bar dizatriyaning og'ir ko'rinishida, ba'zan anatriya ko'rinishida, ba'zi hollarda esa bul'bar buzilishlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ayrim hollarda bolaning o'zida BMFning turli shakllarining birgalikda kelishini kuzatish mumkin. Bunday hollarda dizatriyaning aralash shakllarini kuzatish mumkin. Logoped nevropatolog bilan birgalikda nutqiy nuqsonning boshlovchi turini aniqlab olish zarurdir. BMFning dizatriyasida asosiy xususiyat kinestetik idrokning rivojlanmaganligi hisoblanadi. Bunda bola harakatlarni qiyinchilik bilan va chegaralangan tarzda bajaradi, qo'l va oyoqlari harakatini, artikulyatsion organlar harakatini va holatini bo'sh sezadi.

Bu esa artikulyatsion va umumiy disproksiyaning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi, natijada maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni bajarishni qiyin-lashtirib, tovushlar talaffo'zining buzilishini kuchaytiradi.

BMFda logopedik ishning maqsadi artikulyatsion holat va harakat sezgilarini rivojlantirishdan iboratdir. Artikulya-tsion harakat sezgilarini yaxshilash uchun olib boriladigan mashqlar oyna yordamida harakatlarni ochiq ko'z bilan ko'zatish va harakatlarini yopiq ko'z bilan diqqatli bo'lib sezish kabi mashqlar navbatma navbat qo'llaniladi.

BMFda nutq va umumiy motorikaning buzilganligi o'rtasidagi bog'liqlik artikulyatsion motorikadagi murakkab buzilishlar qo'l harakati funktsiyalarining buzilishiga olib kelishida ham namoyon bo'ladi.

Nutq va qo'l harakatlarining bog'liqligi 1928 yilda V.M.Bexterev tomonidan aniqlangan bo'lib, u qo'l harakatlarning rivojlanishi nutqning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib o'tgan. M.M.Kol'tsova (1973) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola barmoqlarining harakati markaziy asab tizimining shakllanishiga ta'sir ko'rsatib, bola nutqining jadal rivojlanishiga ta'sir ko'rsatar ekan.

Ushbu ma'lumotlar logopedik ishlar bilan bolaning qo'l va umumiy motorikasini rivojlantirish ishlarini birgalikda olib borish zarurligini ko'rsatadi. BMFda dizartriya bolalar turli harakatlarni bajarganlarida umumiy va nutq muskulaturasida muskul tonusining oshganligi ularning acociy belgilaridan biri hisoblanadi. Mashg'ulotlar vaqtida boladan haddan tashqari kuch talab etilmaydi. Chunki bu narsa muskul tonusining ortishiga va tovush talaffuzining buzilishining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Nutqiy nafasni rivojlantirish uchun puflashga oid turli mashqlar tavsiya etiladi. Lekin kichik yoshdagi miya falajli bolalar uchun bu mashqlar har doim ham foydali bo'lavermaydi. Chunki ular bu mashqni bajarishda haddan tashqari kuch ishlatishlari mumkin. Bu esa umumiy muskul tonusining ortishini kuchaytirishi mumkin.

BMFda artikulyatsion motorikaning buzilishi bola nutqi-ning talaffuz tomonining shakllantirishini qiyinlash-tiribgina qolmay, balki fonematik idrokning ikqilamchi buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa bolada so'zning tovush analizi hamda tovush-bo'g'in tizimining buzilishiga olib keladi.

Lekin hamma bolalarda ham so'zning tovush tarkibini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar bir xil darajada namoyon bo'lavermaydi. Ayrim bolalar so'zni alohida tovush elementlariga bo'lishda yaqqol qiyinchiliklarga uchasalar, boshqalari esa tovush tahlilining oddiy shakllari (bilan)ni qo'llashni eplay oladilar.

Ko'pincha ularda so'zning tovush tahlilidagi qiyinchiliklar tovushlarni noto'g'ri talaffoz qilishida namoyon bo'ladi. Va, nihoyat, juda kam hollarda bolalarda so'zning tovush tahlilidagi qiyinchiliklar va tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish hollari kuzatilmasligi mumkin. Bu esa bolalardagi fonetiko-fonematik buzilishlarni bartaraf etishda differentsial yondashishini talab etadi.

Miya falajli va dizartriya bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar artikulyatsion ko'nikmalarni, fonematik idrok va analizni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Miya falaj va dizartriya bilan hastalangan barcha bolalar artikulyatsiya malakalarni, fonematik eshtishini, idrok va tahlil qilishni takomillashtirishga yo'naltirilgan logopedik tadbirlarning kompleks tizimini o'zlashtirishdagi spetsifik qiyinchiliklar harakterli xususiyatdir.

N. N. Malofeev (1985 yilda) miya falajli kichik yoshdagi maktab o'quvchilari tomonidan otlarni va fe'llarni nutqda ishlatish chastotasini o'rganib chiqdi.

Shu narsa aniqlandiki ot, fe'l va old qo'shimchalar ularning butun lug'at boyligining 90 % ni tashkil qilar ekan. Boshqa so'z turkumlari lug'atda etarli berilmagan. Bir xil so'zlarni ko'p marta taqrorlash, fe'llarni to'g'ri ayta olmaslik o'rinlari, ularning ma'nosini aniq ayta olmaslik bolalar uchun harakterli xususiyatlar ekan.

Miya falajli kichik maktab yoshidagi bolalarda leksik-semantik buzilishlar L.B.Xalilova tomonidan 1984 yilda o'rganilgan edi. Bu o'rganishdan shu narsa aniqlandiki, bolalar ko'p so'zlarning ma'nosini bilmaydi, bir so'zning ma'nosini shu so'z talaffuziga o'xshashi (bilan) bo'lgan boshqa so'zning ma'nosi bilan almashtirib yuborishadi, so'zning semantikasini unga sinonimi jihatdan munosabatda bo'lgan boshqa so'zlarning leksik ma'nosi bilan chalkashtirib yuboradi. Ba'zi o'rinlarda so'z tartibida uning asosiy mazmunini tyshynmay turib, konkret ma'nosinigina ajratib ko'rsatadi.

Bolalar ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari o'rtasidagi funktsional umumiylikni belgilashda qiynalishadi, ularda amantik tasavvurlar chegaralangan, til abstraktsiyalari va umumlashtirishlar etarli emas.

Miya falajli bolalarda leksik harakterli buzilishlar kasallikning o'ziga xosligi bilan izohlanadi.

Harakat buzilishlari va ijtimoiy alokalarning chegaralanganligi sababli bola tomonidan tevarak-atrofga ongli ravishda munosabatda bo'lish birmuncha cheklangan. Bu bolalar miya falajida analizator faoliyatining rivojlanishining umumiy buzilishi bilan kompleks assotsiatsiyalarini shakllantirishdagi qiyinchiliklar vujudga keladi.

Bola predmetlardagi o'xshash va farqli tomonlarini mustaqil ajrata olish qobiliyatiga ega emas. Faqatgina amaliy faoliyat davomida atrofdagi predmetlarni umumiy tarzda idrok qilishning, fahmlashning asosini tashkil qiluvchi kompleks assotsiatsiyalar shakllanishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolada idrok qilishning va tasavvurni rivojlantirish faoliyatining har xil turlarida (predmet-amaliy, mehnat, tasviriy san'at), o'yinlarda amalga oshirilib boriladi. Shunday qilib, bolalarda so'zlar lug'atining rivojlantirish va boyitishning asosiy ahamiyati, ularda atrofdagi voqea va xodisalar haqidagi tushuncha va tasavvurlarning shakllantirish hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha bo'ladigan mashg'ulotlarning dastlabki davrlarida atrofimizdagi narsa va hodisalarni hamda ular bilan bo'ladigan harakatlarni tushinishga, talaffuz qilishga, ularning farqli va o'xshash xislatlarini anglab olishga, predmetlarda qism va butunlik munosabatlarini (inson yuzi va tanasining qismlari, boshqa predmetlarining ma'lum qismi kabi) o'rganishga o'qitib boriladi.

Bu mashg'ulotlarda bolalarning lug'at boyligi rivojlantirib boriladi. Ularga kundalik hayotimizda ko'proq duch keladigan, xususan, idishlar, mebel', kiyim- kechaklar, o'yinchoqlar kabi predmetlarni tushunishga va yaxshi eslab qolishga o'rgatiladi.

Bir vaqtning o'zida bolaning idrok qilish, fahmlash saviyasi va tasavvurlari konkretlashadi.

Maxsus mashg'ulotlar vaqtida bolalarga o'xshash predmetlarni, ularning asosiy xususiyatini farqlashga o'rgatib boriladi (yuk mashinasini engil mashinadan farqi), shuningdek predmetlarning nimaga mo'ljallanganligiga qarab guruhlash-tirib borishga o'rgatiladi.

Bolani lug'atini rivojlantirish uchun bolaning amaliy va xissiy tajribasini kengaytirishga qaratilgan dastlabki korrektsion tadbirlar katta ahamiyat kasb etadi. Bola hayotining dastlabki davrlaridanoq faol ravishdagi predmet amaliyot harakatlarini shakllantirishga intilishi zarur. Logoped bolaning onasini bola bilan birgalikda bo'ladigan o'yinlarga jalb qilishi lozim. Bu jarayonda esa uning nutqi bir muncha rivojlanib boradi.

Lug'atni shakllantirish bo'yicha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi. Birinchi bosqichda bolalar predmetlar bilan ularning tasviri va ular bilan bajaraladigan ishlar bilan birlamchi tanishtiriladi. Bu o'rinda bolaning e'tiborini jalb qilishga va uning javob reaksiyasini qo'zg'atishga yordam beradigan bir qator usullar qo'llaniladi: ya'ni predmetni kutilmaganda, to'satdan paydo bo'lib qolishi, yo'qolishi, uning harakati.

Eng asosiysi esa bolaning o'zi predmet bilan amalga oshiradigan harakatidir. Bola biron-bir predmetga yoki harakatga e'tiborini qaratish bilan logoped ularning nomini aytadi.

Bola bilan bo'ladigan mashg'ulotlarda qidirish, izlanishni talab qiladigan vaziyatlarni yuzaga keltirish maqsadga muvofiqdir.

Ishning ikkinchi bosqichida bolalar predmetlar bilan, ularning sifati va o'ziga xos bo'lgan jihatlari bilan bir muncha cho'qurroq kengroq tanishtirib boriladi.

Bolada predmet haqidagi, uning qismlari orasidagi munosabat haqida, shuningdek uning qurilishi va tarkibiy qismlari, nimaga mo'ljallanganligi haqidagi tushunchalar shakllanib, mustahkamlanib boradi.

Ishning uchinchi bosqichida predmetlarning ta'qillab ko'rsatiladigan belgilari va xususiyatlarining ko'paytirilishi munosabati bilan mashg'ulotlar bir muncha murakkablashadi.

Lug'at ishning asosiy vazifasi predmetlarning ajratib ko'rsatiladigan belgilari va hususiyatlarini ifodalovchi konkret so'zlarni topishga, o'z o'rnini qo'llash qobiliyatlarini mustahkamlash hisoblanadi.

Ishning to'rtinchi bosqichida umumlashtirishlar va tushunchalar shakllanib boradi. Bolalarda predmetlarning asosiy belgilarini va hususiyatlarini ajratib ko'rsatuvchi so'zlar asosida turdosh va o'xshash jihatdan umumlashtiruvchi fikrlar rivojlantiriladi.

Bolalar hajm, vaqt, masofa, son ma'nolarining ifodalovchi tushunchalarni (kattaroq-kichiqroq, o'zoq-yaqin, oldin, ilgari - kechroq singari va hakazo) o'zlgstirishda ayniqsa qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Lug'at boyligini mustahkamlash va boyitish uchun kundalik muloqatlar, didaktik o'yinlar va o'yin tarzidagi mashqlarni bajarish amalga oshirilib boriladi.

Shunday qilib miya falajli bolalar leksikasini takomillashtirish va boyitishning spetsifikasi sifatida uni predmet-amaliy va o'yin faoliyati bilan o'zviy bog'liq holda olib borishi, shuningdek sensor funktsiyalarini rivojlantirish va ularni korrektsiyasini ongli faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda tashkil qilishni ko'rsatish mumkin.

So'z ustida uning til birligi sifatida va ayniqsa uning ko'p ma'noligini o'rganish haqidagi logopedik ishlarning muhim yo'nalishi katta ahamiyatga egadir. Miya falajlangan bolalarda grammatik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun ularning aqliy va nutqiy rivojlanishlariga kopleks tarzda yondoshish keraq

Miya falaj bilan kasallangan bolalarda harakatning yo'qligi natijasida atrof - muhit bilan aloqasi chegaralangan.

Shuning uchun ularda bog'langan nutqni rivojlantirishda qiyinchiliklar tug'iladi. Bog'langan nutq, fonolog, grammatik va leksik bilim va ko'nikmalar bilan birgalikda shakllantiriladi. Bunda asosiy o'rinni grammatik bilimlar egallaydi.

Bog'langan nutqni shakllantirish uchun miyaning assotsiativ funksiyasini rivojlantirish kerak. Bog'langan nutq frazali nutqga qaraganda sekinroq rivojlanadi. Chunki sog'lom bola 3 yoshgacha frazali nutqni egallasalar, bog'langan nutqni 5 yoshgacha ham to'liq egallamagan bo'ladi.

D.B.El'kokinning ta'kidlashicha bolalarning alohida birikmalarni egallashi butun ma'lumotni egallashga qaraganda osonroq kechadi.

M.M.Kal'tsova bu ko'rinishni mexanizmini bolalar alohida ibora, a'ni tahlid asosida ham ishlab chiqishi mumkinligini, butun ma'lumot esa murakkab sistemani to'zishni talab etishda deb aytadi. Bu fiziologiyalar orqali sistemalarni turli darajasini tashkil qiluvchi ikkita mexanizm mavjudligi isbotlangan.

Birinchi mexanizm - bu shartli aloqa stereotip shakllarini asta-sekinlik bilan rivojlantirishdan iboratdir.

Ularni shakllanishida miya po'stloq qismining quyi esa qismining assotsiativ sohalari etakchi o'rinni egallaydi. Bolalar miya falajida bu mexanizmni izdan chiqishi spastik diplesiya formalaridan namoyon bo'ladi. Bu holatda bog'langan nutqni tashkil qilishini ma'no darajasi izdan chiqadi, bolalar predmetlarni nomlashgan qiynaladilar, so'zlarni unutib qo'yadilar, zarur so'zni kerakli joyda qo'llay olmaydilar. Shu bilan birga mantiqiy-grammatik munosabatlarni unchalik anglamaydilar. Bog'langan nutq soddalashib boradi. Bolalar murakkab shakllarini deyarli qo'llamaydilar, yodlab olgan fiziologik qurilmalarni ishlatadilar.

Ikkinchi mexanizm-shartli alokalarni zudlik bilan ishlab chiqish. Bu peshona plastik sistemasining shartli alokalarini tashkil qilishdan iborat bo'lib, bunda po'stloqning peshona assotsiatsiyalari etakchi rol' o'ynaydi. Ikkinchi darajadagi alokalarni hosil qilinishi uchun nerv jarayonlarini ma'lum darajada etilishi zarur bo'ladi. Bolalar miya falajida bu nuqson miyaning peshona bo'limlarini etilishida to'xtab qolishi yuz berganida sodir bo'ladi.

Bu holatda nutqiy bayon qilish ma'lumot berishning ketma-ketligi, nutqiy bayon qilishni yo'nalganligi aziyat chekadi.

Bundan tashqari giperkinetik shaklida bog'langan nutqning harakat-tonik buzilishlari ko'zatilib u nutqni oxangdorligini yo'qolishi, sekinlashuvi, iboradan iboraga o'tishidagi qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladi.

Miya falajiga ega o'quvchilar bilan o'tkaziladigan tekshirish ularni nutqni qay darajada tushunishni 3 variantini ko'rsatib beradi.

Uchchala variantda ham nutqni tushinishni buzilishi deyarli og'ir bo'lmasada bolalar maktab dasto'rini egallashda qiyinchiliklarga duch kelganlar.

Birinchi variantda to'g'ri va noto'g'ri tuzilgan iboralarni farqlash, shuningdek murakkab grammatik qurilmalarni tushinishdan iborat edi. Bu o'quvchilarni umumiy psixik aktivligini past darajasi bilan alohida so'zlarni ma'nosini tor darajada tushinish bilan kontekst nutqni murakkab formalarini tushinishi bilan birgalikda namoyon bo'ladi.

Ikkinchi variantda o'quvchilar kelayotgan axborotni umumlashtirishga qiynaladilar. Bu teskari konstruksiyalarni tushinishni buzilishida ko'rinadi. Bunday bolalar hikoyalarni, masala shartlarini, dasturdan tashqari materialni o'qiganda qiyinchilikka yuz keladilar.

Uchinchi variantda ular o'zlariga qaratilgan nutqni anglay olmaydilar bu bolalardagi lug'at zaxirasining sayyozligi, atrof muhit haqida tasavvurlarni, bilimlarni etarli emasligi amaliy tajribani kamchiligi bilan namoyon bo'ladi. Bolalar kamchiliklar yordamida xocil qilinadigan fe'llarni yaxshi tushunmaydilar. Bu buzilishlar miyaning ikkala yarim sharlari zararlanishi oqibatida paydo bo'ladigan spastik diplegiyada kuzatiladi.

Miya falajning giperkinetik shaklida ba'zi fonemalarni aniq qabul qilish zarurligi oqibatida tushinishda qiyinchiliklar yuz beradi. Ular berilgan rasmda bitta kuchuk qaerda va ko'p kuchuklar qaerdaligini ko'rsatib bera olmaydilar. Ba'zida bir-biriga yaqin fonemalarni differentsiya qilishda muammolar vujudga keladi. Bolalar miya falajida miyani turli zararlanishi, uning etilishi faoliyatdagi kamchiliklar bilan bir qatorda bolalarda disgrafiya va disleksiyaning hamma ma'lum shakllari kuzatilishi mumkin.

Bu mexanizmlarni buzilishida analizatorlarning etarli darajada ishlamasligi muhim rol' o'ynaydi. Bu bolalarda yozma nutqni buzilishi ulardagi ko'ruv taassurotini va tasavvurlarini etarli emasligi va optik-fazoviy gnozisini shakllanganligi bilan namoyon bo'ladi. YOzishda o'xshash harflar aralashtirib yuboriladi, agarda bu buzilishlar ko'ruv tasavvurlarini etarli emasligi bilan belgilansa unda ko'chirib yozish saqlanib qoladi. Agarda ular asosida optik - fazoviy tasavvurlarning shakllanmanganligi yotsa ko'chirib yozish qiyinchilik bilan kechadi.

Bolalar miya falajida teskari yozuvni namoyon bo'lishi harakterli bo'lib u o'qish boshlang'ich etaplarida namoyon bo'ladi. U o'ng tomon gemiparezida chap qo'lda yozish orqali kuzatiladi. Bolalar o'ngdan chapga qarab yozadilar va chizadilar, assimetrik harflarni teskari ifodalaydilar Ular o'xshash grafiklarni almashtirib yuboradilar. Ba'zi holatlarda yozuvda harf va bo'g'inlarda tushurilib qoldiriladi. Undan harflar almashtirilib va aralashtirib yuboriladi.

Bolalarda bu o'ziga xos qiyinchiliklar, so'zni ko'rib uni tovush va artikulyatsiyasi bilan bog'lay olmasliklarida, ko'ruv - motor kordinatsiyasini shakllanmaganligida namoyon bo'ladi. Bola yozayotgan qo'l harakatini ko'zatib tura olmaydi, bu so'zlarni qo'shib yozishni qiyinlashtiradi buning natijasida so'z va bo'g'inlarni almashtirish, tushirib qoldirish, ba'zi hollarda bitta so'z yoki bo'g'inni hatto so'zni bir necha marotaba qaytarish kuzatiladi. Disgrafiyaning oldini olish uchun korreksion ishlarni erta nutqni xamma tomonlarini rivojlantirish, ko'rib va eshitib qabul qilishni, ko'ruv - motor koordinatsiyasini rivojlantirish zarur. Bu buzilishlarda ko'pincha tez - tez uchrab turadigan dizartriya. Diagnostika va korrektsiyalashda qiyinchilik tug'diradigani alaliya hisoblanadi. Chunki nutqning yo'qligi bolalarda fikr yuritish faoliyatini rivojlanmasligiga olib keladi. Alaliyada bosh miyaning nutq zonalarini lokal shikastlanishi spetsifik nevrologik simptomlar bilan birgalikda kuzatiladi. Bu elektroensofalografik tekshirishlarda tasdiqlanadi. Bu bolalardagi motor alaliyani maxsus o'qitishlarsiz bartaraf etib bo'lmaydi.

Miya falajlangan bolalarda alaliya 3-5% tashkil etadi. Alaliyani patogenezi ikkita faktor bilan bog'liq.

1. Nutq mexanizmlarini shikastlanishi ekzogen ta'sirlar ostida kelib chiqadi, shu bilan bir qatorda bu miya falajni ham keltirib chiqaradi (homilalik va tug'uruq davrdagi travmalar, gipoksik faktorlar, perinatal entsifalit).

2. Nutq mexanizmlarini shakllanmaganligi natijisida harakatli-kinestik deprivatsiya yoki nutqning pereferik to'zulishining patagogik afferentatsiyasi ya'ni nutq motorikasini shikastlanishi (natijasida) va eshituv - kinestik integratsiyani shakllanmaganligi natijasida, bosh miya serebral falaji bilan kasallangan bolalarda etishini qobiliyatining buzulishiga olib kelinadi.

XULOSA

Har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya tizimi negizida muayyan maqsadlar yotadi. Istiqbol vazifalari esa bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimi mazmunini yangilashni talab etadi. Bu esa ijtimoiy tarbiya bilan oilaviy tarbiyani mazmunan uzviy bog'lash zaruratini keltirib chiqaradi. Maxsus korreksion pedagogika umumiy pedagogikaning tarkibiy qismi bo'lganligi uchun, bu vazifalar ushbu sohaning ham ustuvor vazifalariga aylandiki, ularning amalga oshirilishi maxsus pedagogikani oilaviy tarbiya va ijtimoiy tarbiya bilan uzviy bog'lashning yangi usul va yo'llarini izlab topish, bu yo'lda ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Davlat va jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli shu davlat, shu mamlakatda yashovchi fuqarolarning jismonan baquvvat va sog'lom bo'lishi bilan belgilanadi. Yaxshi orzu-umidlar bilan kutilayotgan farzandning nosog'lom, nogiron tug'ilishi esa har qanday oila uchun fojeadir.

Maxsus pedagogikadan hech qanday bilimga ega bo'lmagan ota-onalar bu sohada katta qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Serebral falaj bolalar ota-onalari orasida, qisman bo'lsa-da, farzandlari oldidagi majburiyatlariga loqayd bo'lganlari ham, pedagogik savodxonlik etishmaganlari ham bor. Mana shu kamchiliklarni tuzatish va bartaraf etish maxsus pedagogika oldida, turgan dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada ota-onalar bilan defektologlarning hamkorligi serebral falaj bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishnig muhim qismi hisoblanadi.

Shuning uchun serebral falaj bolalar bilan korreksion-logopedik ish jarayonida defektolog va ota-onalar hamkorligiga erishishning mazmuni, usullari, korreksion ish vositalari tadqiqotning asosiy maqsadi qilib olindi. Davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarning katta qismini asab-ruhiy kasalliklari bor bolalar va rivojlanishida kamchiliklari bor bolalar tashkil qiladi.

Bu bolalar ruhiy, nutqiy, eshitish va tayanch-harakat sistemasida kamchiliklari bor yoki muloqot qila olmaydigan, ruhiy va asab kasalliklari: shizofreniya, epilepsiya, miopatiya va boshqa kasalligi bor bolalardir. Maxsus guruhga kiradigan bolalar borki ularda bir necha kasalliklar bo'lishi mumkin.

Masalan, aqliy kamchiligi bilan ko'rish, eshitish, ruhiy kasalliklari, suyak-bo'g'in kasalliklari va ichki organ kasalliklari va boshqalar.

Bu bolalarning maktabga va jamiyatga ko'nikishi uchun kasallikning turigina emas, balki kasallikni korrektsiya qilish, davolash vaqtining boshlanishi muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda shu narsa aniqlandiki, erta boshlangan davolash tarbiyalari natijasida bolaning yaxshi rivojlanishi, sharoitga ko'nikishi ancha oson kechadi.

Bolaning erta yoshidagi davolash va korrektsiyalash muolajalari xoh oilasida bo'lsin, xoh pedagog mashg'ulotlarida bo'lsin hozircha kam ishlab chiqilgan. Ayniqsa, surunkali somatik kasalliklar, asab-ruhiy buzilish kasalliklari, hamda muloqot buzilishlari ustida hali ko'p ishlash kerak.

Har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya tizimi negizida muayyan maqsadlar yotadi. Istiqlool vazifalari esa bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimi mazmunini yangilashni talab etadi.

Bu esa ijtimoiy tarbiya bilan oilaviy tarbiyani mazmunan uzviy bog'lash zaruratini keltirib chiqaradi.

So'nggi yillarda hayotimizga kirib kelgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik sohalarga oid keskin va ziddiyatli o'zgarishlar uni tubdan o'zgartirib yubordi.

Mavzuimiz maqsadi bo'lgan jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo'ltan bolalarning ko'payishiga ham olib kelayotganini aytib o'tmoqchimiz. BMT ma'lumotlariga ko'ra dunyo" miqyosida nogiron bolalar ko'rsatgichi 450 millionga yaqin.

Hozirgi kungacha og'ir kamchiligi bor bolalar o'qitib bo'lmaydigan nogironlar deb qaralar edi va ota-onasiga bolani davlat tasarrufidagi tashkilotlarga joylashtirish tavsiya etilar edi. Hozirgi vaqtda vaziyat o'zgardi. Rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar maqsadga yo'natirilgan tarbiyasining to'g'ri tashkil qilinishi muammoning ota-onalar va pedagoglar tomonidan aniq tushunganlaridagina ta'minlanadi.

Bosh miya falaji bor bolalarda kompleksli davolash — pedagogik ishlar qancha erta boshlansa nutq motorikasining rivojlanishi shuncha yaxshi kechadi. Korrektsion ishlar bolaning yoshi va kasallik shakliga qarab olib boriladi. Bundan tashkari bosh miya falaji bor bolalar bilan artikulyatsion buzilishlarni to'g'rilash bo'yicha ish olib boriladi: artikulyatsion apparat muskullarni bo'shashtirish, og'iz harakatining nazorati, to'g'ri nafas olishni o'rganish, tovushni rivojlantirish, artikulyatsion harakatlarni rivojlantirish va yuzni bo'shashtiruvchi massajlar xam bajariladi. Harakat funksiyalarining rivojlanishi Bosh miya falaji bor bolada tug'ilgandayoq buzilgan bo'ladi. Turli massajlar ham bolaning mustaqil harakat qilishiga yordam beradi. Klassik davolash massaji muskullarni bo'shashtirib kuchsiz to'qimalarni kuchaytiradi. Ta'lim- tarbiya va davolash ishlari uzviy ravishda olib borilsa ko'zlangan maqsadga erishish oson kechadi.

Ota-onalarni bola tarbiyasiga oid maxsus adabiyotlar va qo'llanmalar bilan, ommaviy axborot vositalarida bosilgan maqolalar bilan muttasil tanishtirib borish, serebral falaj farzandi bo'lgan ota-onalar o'zlarining yordamga muhtoj bo'lgan bolalari doimiy ularning pedagogik ta'siri muhitida bo'lishi kerakligi haqida ma'lumot olib turishlari, bu borada pedagog-defektolog, shifokorlardan psixonevrolog, psixolog, ortoped, pediatrilardan o'z vaqtida maslahatlar olib turishlari kerak.

Serebral falaj farzandi bor oilalarda bolaning ruhiy rivojlanishida uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarning oldini olish va davolash, korrektsion ta'lim-tarbiyalash ishlarida defektologlar va ota-onalar uchun quyidagi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Ota-onalarga serebral falaj farzandni tarbiyalashdagi o'z burchlarini, xuquqlarini anglatish va ularning pedagogik savodxonligini oshirish.
- Ota-onalarni bola tarbiyalashga tayyorlashda bolaning nuqsonlarini korrektsiyalashga qaratilgan usul va vositalarni qo'llash.
- Ota-onalarga bola tarbiyalashda tibbiy, psixologik-pedagogik bilimlar berib borishda mutaxassis-defektolog, psixolog, nevropatolog, psixiatr, ortoped hamkorligini mustahkamlash.

- Ota- onalarni oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishga oid bilimlar bilan qurollantirish.

- Serebral falaj farzandi bo'lgan ota-onalar uchun o'quv markazlarini tashkil etish hamda doimiy seminarlar o'tkazib borish.

- Reproduktiv salomatlik va sog'lom oilani shakllantirish masalalarida yoshlar mas'uliyatini oshirish.

- Tarbiya va bilim berishning asosiy printsiplariga rioya qilish;

- Har bir bola uchun dinamik individual dastur tuzib olish;

- Bosh miya falaji bor bolalarda kompleksli davolash — pedagogik ishlarni erta boshlash;

- Bosh miya falaji bor bolalarning harakatlarini rivojlantirishda davolovchi gimnastika yulga kuyish;

- Bosh miya falaji bor bolalar harakatlarini rivojlanishi uchun davolovchi uqalashdan keng foydalanish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. “Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent. 1998.
2. Karimov I.A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent. O`zbekiston. 1992.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. O`zbekiston. 1995.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 1998.
5. Karimov I.A.”O`zbekiston mustaqillikga erishish ostonasida” 2011y
6. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni. 1997.
7. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” 1997.
8. Mustaqil O`zbekistonning yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi konsepsiyasi. Toshkent. O`qituvchi. 1994.
9. Jurba L.T., Mastjukova E.M. Narushenie psixomotornogo razvitiya detey pervogo goda jizni.-M: Meditsina,1981.
10. E.Krauze. Logopediya. Moskva-2006.
11. K.Mamedov, G.Berdiyev, Sh.Xoliqova. Maxsus psixologiya ma’ruzalar matni. Toshkent, 2001.
12. Lalaeva R.I. Metodika psixolingvisticheskogo izucheniya narusheniy rechi u anomalnix detey.-S.P., 1990.
13. Logopediya, Pod red. L. Volkovoy-M.: Prosveshenie, 1989.
14. Mastjukova E.M. Lechebnaya pedagogika M., 1997 y.
15. Markova A.K. Liders A.G., YAkovleva E.L. Diagnostika i korrektsiya umstvennogo razvitiya v shkol’nom i doshkol’nom vozraste.- Petrozavodsk, 1992.
16. M. B. Rizashova. Serebral falaj bolalar bilan korrektsion-logopedik ish jarayonida ota-ona va defektolog hamkorligi. // Vestnik OshGU – Osh, 2008- №5. 102-105 str
17. M. YU.Ayupova. Logopediya. Toshkent-2007.

18. Raxmanova V.S. Onatili o'qitish maxsus metodikasi. Moliya - iqtisod: T., 2007
19. Raxmanova V.S. Maxsus pedagogika (Mutaxassislikka kirish.-G'ofur G'ulom: Toshkent, 2004
20. Pulatova F., Maxsus pedagogika (Oligfrenopedagogika).- G'ofur Gulom T, 2006
21. A.V. Zaporozhes, V.A. Usovalarning taxriri ostida chiqqan "Boshlang'ich sinfda o'tkaziladigan o'yinlarning psixologiya va pedagogikasi".-M..1992
22. G.I. Shukina "O'quvchilarning o'quv jarayonida bilim olish faoliyatini faollashtarish» .-M., 1998
23. WWW.pedagog.uz
24. WWW.TDPU.uz
25. Ziyonet. www.ziyo-net.ru

Ilova

Serebral falaj bola ota-onalarining pedagogik savodxonligini oshirish modeli.



